




# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

## NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

## KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025-yil 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 18 515 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 16 165 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 29 599 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,8 foizni tashkil etdi.

### **Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar**

*(1-yanvar holatiga)*

#### **Ro'yxatdan o'tgan (birlikda)**

**29 599** 2025

**28 521** 2024

**26 437** 2023

**23 595** 2022

**21 321** 2021

#### **Faoliyat ko'rsatayotgan (birlikda)**

2025 **18 515**

2024 **21 880**

2023 **25 179**

2022 **22 711**

2021 **20 133**



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**  
(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)


2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 046 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 164 ta, xususiy korxonalar soni 445 ta va oilaviy korxonalar soni 344 tani tashkil etadi.


**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**  
(birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 18 515 tani tashkil etdi, ulardan 16 165 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,2 foiz, sanoat – 12,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,5 foiz, qurilish – 6,0 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Navoiy shahrida – 24,9 foiz, Karmana tumanida – 15,8 foiz, Qiziltepa tumanida – 13,3 foiz va Xatirchi tumanida – 10,2 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 953 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 944 ta;
- yirik korxonalar 9 tani tashkil etdi.

## Yillar kesimida soni

(birlikda)

2 953

2024

2023

3 808

4 336

2022

2021

4 846

4 267

2020

## Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Navoiy sh.

710

Karmana t.

410

Qiziltepa t.

327

Navbahor t.

292

Xatirchi t.

291

Konimex t.

275

Zarafshon sh.

214

Nurota t.

131

Uchquduq t.

123

Tomdi t.


99

G‘ozg‘on sh.

81

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 16 252 tani tashkil etdi, ulardan 16 165 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 42,4 foiz, sanoat – 14,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,8 foiz, qurilish – 6,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,9 foiz, tashish va saqlash – 4,3 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,7 foiz, boshqa turlari – 10,2 foiz.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




## (2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiyligi sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 33,8 foiz, sanoat – 17,6 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 16,0 foiz, qurilish – 4,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 10,5 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 3,5 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 9,3 foiz.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	704
Karmana t.	408
Qiziltepa t.	327
Navbahor t.	292
Xatirchi t.	290
Konimex t.	275
Zarafshon sh.	214
Nurota t.	131
Uchquduq t.	123
Tomdi t.	99
G‘ozg‘on sh.	81


### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (24,6 foiz), Karmana (16,4 foiz), Qiziltepa (13,8 foiz), Xatirchi (9,8 foiz) va Navbahor (10,1 foiz), Zarafshon shahri (6,9 foiz), Nurota (6,5 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.




## 2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.



(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 12,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 88,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni**  
(birlikda)

Navoiy sh.	586
Karmana t.	414
Qiziltepa t.	248
Xatirchi t.	206
Zarafshon sh.	183
G'ozg'on sh.	174
Navbahor t.	171
Nurota t.	164
Uchquduq t.	96
Konimex t.	58
Tomdi t.	49

**Yillar kesimida soni**  
(birlikda)



2 075 | Ishlab chiqarish sanoati

194 | tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

68 | Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

12 | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*(2025-yil 1-yanvar holatiga)*

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 52,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 31,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 16,2 foiz ulushni tashkil etdi;


#### **Hududlar kesimida soni**

*(birlikda)*

Navoiy sh.	362
Karmana t.	202
Qiziltepa t.	175
Navbahor t.	89
Zarafshon sh.	78
Nurota t.	68
Xatirchi t.	53
Konimex t.	27
Uchquduq t.	20
Tomdi t.	19
G'ozg'on sh.	13

#### **Yillar kesimida soni**

*(birlikda)*



Bino va  
inshootlar qurish



Fuqarolik  
obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 6 881 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 71,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 20,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,2 foiz ulushni tashkil etdi

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Navoiy sh.	1 655
Qiziltepa t.	1 141
Karmana t.	1 109
Navbahor t.	864
Xatirchi t.	769
Zarafshon sh.	425
Nurota t.	293
Uchquduq t.	259
Konimex t.	198
Tomdi t.	103
G'ozg'on sh.	80

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



4 895

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

1 435

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

566

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

## **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

*(2025- yil 1- yanvar holatiga)*

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 123 taga yetib, ularning 1 117 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:



mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,4 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,6 foiz ulushini tashkil etdi.

### **Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Navoiy sh.	269
Zarafshon sh.	188
Karmana t.	182
Qiziltepa t.	129
Xatirchi t.	120
Uchquduq t.	81
Navbahor t.	48
Nurota t.	44
Konimex t.	43
Tomdi t.	13
G'ozg'on sh.	6

### **Yillar kesimida soni (birlikda)**



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

2025-yil 1-yanvar holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining 73,9 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlilik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 24,1 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,0 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Navoiy sh.	86
Karmana t.	45
Qiziltepa t.	34
Xatirchi t.	24
Zarafshon sh.	23
Navbahor t.	17
Uchquduq t.	12
Nurota t.	10
Konimex t.	5
G'ozg'on sh.	3
Tomdi t.	2

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar

91

99

Aloqa



Noshirlilik faoliyati

30

33

Axborot xizmati  
ko'rsatish  
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

5

3

Dasturlar yaratish bo'yicha  
faoliyat va teleko'rsatuv  
va radioeshittirish



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 268 ta yoki 82,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,0 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,7 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,3 foizini tashkil etdi.


### Hududlar kesimida soni

(birlikda)



### Yillar kesimida soni

(birlikda)



Sog'liqni saqlash  
sohasidagi  
faoliyat



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**




Navoiy sh.	210
Karmana t.	167
Qiziltepa t.	142
Xatirchi t.	64
Navbahor t.	45
Zarafshon sh.	33
Uchquduq t.	18
Nurota t.	11
Tomdi t.	8
Konimex t.	4
G'ozg'on sh.	3

2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 81,4 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 15,9 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 2,7 foizni;

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot**

*(2025- yil 1- yanvar holatiga)*

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan  
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

**10 266**

**mas'uliyati cheklangan  
jamiyat**

**63,2**

**3 218**

**xususiy korxonalar**

**19,8**

**2 667**

**oilaviy korxonalar**

**16,4**

**17**

**aksiyadorlik jamiyat**

**0,1**

**84**


**boshqalar**

**0,5**

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Navoiy sh.	590
Karmana t.	307
Qiziltepa t.	272
Xatirchi t.	205
Navbahor t.	183
Konimex t.	176

Zarafshon sh.	142
Uchquduq t.	115
Nurota t.	110
Tomdi t.	52
G'ozg'on sh.	12

(2025- yil 1-yanvar holatiga)


2025- yil 1- yanvar holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 10 266 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,3 foiz, sanoat – 13,4 foiz, qurilish – 8,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,9 foiz.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)


Navoiy sh.	2 886	Zarafshon sh.	567
Qiziltepa t.	1 716	Uchquduq t.	498
Karmana t.	1 642	Konimex t.	438
Navbahor t.	849	Tomdi t.	216
Xatirchi t.	748	G'ozg'on sh.	83
Nurota t.	623		

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)


Konimex t.	86
Navbahor t.	65
G‘ozg‘on sh.	60
Zarafshon sh.	60
Xatirchi t.	47
Tomdi t.	45
Navoiy sh.	39
Karmana t.	20
Qiziltepa t.	17
Nurota t.	6

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

2025- yil 1- yanvar holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Xatirchi tumanida – 485 ta, Navoiy shahrida – 551 ta va Zarafshon shahrida – 450 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 566 ta, sanoat – 483 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 276 ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 231 ta.


## Yillar kesimida soni

(birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	551
Xatirchi t.	485
Zarafshon sh.	450
Navbahor t.	377
Karmana t.	359
Qiziltepa t.	275


Nurota t.	228
G'ozg'on sh.	195
Konimex t.	152
Tomdi t.	100
Uchquduq t.	46

## (2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Karmana t.	83
Navoiy sh.	81
Navbahor t.	44
Xatirchi t.	39
Qiziltepa t.	38
Nurota t.	15

Konimex t.	13
Zarafshon sh.	12
G’ozg’on sh.	9
Uchquduq t.	8
Tomdi t.	2


(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 2 667 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 51,6 foiz, sanoat – 17,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 11,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,6 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Karmana tumanida – 24,6 foiz, Navoiy shahrida – 20,0 foiz, Navbahor tumanida – 15,4 foiz va Xatirchi tumanida – 12,9 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


## Yillar kesimida soni

(birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Karmana t.	657
Navoiy sh.	534
Navbahor t.	412
Xatirchi t.	345
Qiziltepa t.	233
Nurota t.	182

Konimex t.	106
Zarafshon sh.	104
G'ozg'on sh.	39
Uchquduq t.	31
Tomdi t.	24

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Qiziltepa tumani (28,7 foiz), Xatirchi tumani (24,1 foiz) va Navbahor tumani (12,8 foiz) ga to'g'ri keladi.


## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qiziltepa t.	882
Xatirchi t.	740
Navbahor t.	395
Nurota t.	395
Karmana t.	254
Tomdi t.	172
Konimex t.	155
Uchquduq t.	70
Navoiy sh.	5
G'ozg'on sh.	5
Zarafshon sh.	1


## Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chovvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash va akvakultura



O'rmonchilik va yog'och tayyorlash



**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona  
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 152,2 foizni tashkil etdi.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Navoiy sh.	36
Karmana t.	8
Konimex t.	7
Zarafshon sh.	6
Xatirchi t.	4


Nurota t.	3
Navbahor t.	3
G'ozg'on sh.	2
Uchquduq t.	1

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 244 ta korxonalardan 89 tasi qo'shma korxonalar va 155 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Navoiy sh.	91
Karmana t.	61
Zarafshon sh.	16
Xatirchi t.	15
Konimex t.	14
Nurota t.	14

Navbahor t.	10
Qiziltepa t.	7
G'ozg'on sh.	6
Tomdi t.	6
Uchquduq t.	4

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 76 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 31,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,2 foiz), Turkiya (ulushi 9,0 foiz), Eron Islom (6,6 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,3 foiz) va Qozog'iston (ulushi 4,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2025- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalg qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Navoiy shahriga 37,3 foiz, Karmana tumaniga – 25,0 foiz va Zarafshon shahriga – 6,6 foiz to'g'ri keladi.


(2025- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)



**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- yanvar** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

Mobil versiyasi

Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

ZARURIY kodini kiritish

Aparat xalqaro tafsiz qaroridagi:  
ZARURIY kodini kiritish

Rasmiy kodini kiritish

Deklaratsiya

C) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Statistika agentligi  
2020 yil



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston  
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida,  
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,  
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.: 79 223-62-47

PRESS-RELIZ

